

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60230100 - Filologiya va tillarni o‘qitish bakalavriat ta’lim
yo‘nalishining*

MALAKA TALABI

Toshkent-2024

ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining
2024-yil “_____” _____ dagi _____ – sonli buyrug‘i bilan.

JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo‘nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

MUNDARIJA

T/r		bet
1.	Umumiy tavsifi.....	4
1.1.	Qo‘llanish sohasi.....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarning tavsifi	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatning sohalari	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatarning ob’ektlari.....	4
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarning turlari.....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalar.....	5
2.	Kasbiy kompetensiyalarga qo‘yiladigan talablar.....	6
3.	Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.....	7
4.	Fanlar katalogining tuzilishi.....	7
5.	Dual ta’lim bo‘yicha o‘qitishga qo‘yiladigan talablar.....	10
	Bibliografik ma’lumotlar.....	11
	Kelishuv varag‘i	12

1. Umumiy tavsifi

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi va kechki ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me‘yoriy muddati 4 yil.

1.1. Qo‘llanish sohasi

1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.

Malaka talablari 60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim tashkilotlari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

1.1.2. Malaka talabining asosiy foydalanuvchilari:

Mazkur ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malaka talablari, o‘quv reja va o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o‘quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas’ul hamda o‘z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o‘quv bo‘limi boshlig‘i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o‘qituvchilari;

ta’lim yo‘nalishining o‘quv rejasi va o‘quv dasturlarini o‘zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo‘yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim tashkilotlarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o‘qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

1.2. Kasbiy faoliyatlarning tavsifi.

1.2.1. Kasbiy faoliyatning sohalari.

Uzluksiz ta’limning davlat va nodavlat muassasalarida xorijiy tillarni o‘qitish, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, davlat boshqaruvi organlari, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlarda faoliyat olib borish bilan bog‘liq kasbiy sohalari majmuasini qamrab oladi.

1.2.2. Kasbiy faoliyatlarning ob’ektlari.

Davlat boshqaruvi organlari, O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi va tarmoq ilmiy tadqiqot institutlari, ommaviy axborot vositalari va nashriyotlar, maktabgacha, umumiy o‘rta va o‘rta maxsus, professional ta’lim tashkilotlari, davlat va nodavlat ta’lim tashkilotlari, korxonalar va muassasalar, kompaniyalar (firmalar)da filolog, pedagog (asosiy va ikkinchi til bo‘yicha).

1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:

- *ta’lim muassasalarida pedagogik va ilmiy-pedagogik;*
- *tarjimonlik;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *OAVda muxbirlilik, nashriylik va muharrirlilik;*

- *ilmiy tadqiqot;*
- *konsalting xizmati.*

1.2.4. Kasbiy vazifalar.

60230100 – Filologiya va tillarni o‘qitish ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, ob‘ektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

Ta’lim muassasalarida pedagogik va ilmiy-pedagogik faoliyatida:

uzluksiz ta’lim tizimining ixtisosligiga mos ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyoti hamda o‘rgangan asosiy va ikkinchi chet tillarini o‘qitish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘qitilayotgan fanlar bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

o‘qitilayotgan fan bo‘yicha o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun o‘qitishning didaktik vositalaridan foydalanish;

chet tillarni intensiv shaklda o‘rgatish (qisqa kurslar);

mustaqil ta’lim va ilmiy-ijodiy izlanish ishlari natijasida o‘qitilayotgan fan bo‘yicha pedagogik faoliyatni muntazam takomillashtirib borish.

Tarjimonlik faoliyatida:

davlat va nodavlat tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish;

maorif, madaniyat, turizm sohalarida, turli davlat muassasalarida, mehmonxona, qo‘shma korxonalar, firmalarda ish yurituvchi, referent vazifasida ishlash;

texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish;

mehmonxona, sayyohlik firmalarida menejer va ma’muriy xodim sifatida ishlash;

xalqaro konferensiya va tadbirlarda tarjimonlik faoliyatini olib borish.

Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:

filologik faoliyat sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

ma’naviy, milliy va umuminsoniy qadriyatlar masalalari yuzasidan o‘z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqloq g‘oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo‘lishi;

ona tili hamda roman german tillariga oid turli tadbir, anjuman va ma’rifiy suhbatlarni tashkillashtirish va boshqarish;

ARMda axborot texnologiyalari tizimini yaratish va ulardan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar monitoringi hamda sifatini baholash mexanizmlarini ishlab chiqish;

jamoada ijtimoiy va ma’naviy-ma’rifiy ishlarni tashkil etish va boshqarish;

bajarayotgan faoliyati bo‘yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash.

OAVda muxbirlilik, noshirlik va muharrirlik faoliyatida:

ommaviy axborot vositalarida muxbirlilik va muharrirlik ishlarini amalga oshirish;

mustaqil ravishda maqola, ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, sohaga oid risola va monografiyalar bo‘yicha musahhah va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish; noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim bo‘lib faoliyat yuritish.

Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:

filologiya sohasida ilmiy tekshirish institutlarida kichik ilmiy xodim, tadqiqotchi izlanuvchi sifatida namunaviy usullar va boshqalar bo‘yicha eksperimentlar o‘tkazish va ularning natijalariga ishlov berish;

namunaviy metodikalar va o‘qitishning innovatsion usullari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

ilmiy-tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

o‘tkazilayotgan tadqiqotlar mavzusi bo‘yicha ilmiy axborotlarni ishlab chiqish, referatlar va bibliografiyalar tuzish;

ilmiy seminarlar, ilmiy-amaliy konferensiyalar ishida ma’ruzachi, muhokamalarda qatnashuvchi va referent sifatida ishtirok etish;

sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash;

internet tarmog‘ida eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda izlash va topish;

ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasasi jamoasi tarkibida kasbiy faoliyat masalalarini echish.

Konsalting xizmati faoliyatida:

yo‘nalishiga mos mavzulardagi loyihalar, manbalar, adabiyotlar, elektron video va audio mahsulotlarni ekspertiza qilish;

ixtisoslikka mos sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lish;

mamlakatdagi turli foydalanish ko‘lamiga ega bo‘lgan tillarga tizimli va funksional tavsif bera olish;

kasbiy faoliyatda hozirgi va tarixiy adabiy jarayonlarni va turli janrga mansub badiiy asarlarni tahlil qila bilish.

2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar.

Davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlariga oid masalalarini bilish, ijtmoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

me’yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

o‘rgangan tillarida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, tabiiy va ilmiy fanlar bo‘yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo‘lish hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o‘z kasbiy faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo‘llay bilish, axborotlarni yig‘ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo‘lish, o‘z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o‘z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

o‘rganilayotgan til fonetikasi, leksikologiyasi, morfologiyasi, sintaksisini hamda so‘z ma’nolarining taraqqiyotini bilish;

uzluksiz ta’lim tizimining ixtisosligiga mos ta’lim muassasalarida ona tili va adabiyoti hamda o‘rgangan asosiy va ikkinchi chet tillarini o‘qitish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanib noan’anaviy o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish;

o‘quv mashg‘ulotlarini o‘tkazish uchun zarur bo‘lgan o‘quv-metodik hujjatlarni tuzish, tayyorlash va rasmiylashtirish;

namunaviy metodikalar va innovatsion ta’lim texnologiyalari bo‘yicha eksperimental tadqiqotlarni o‘tkazish va ularning natijalari bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqish;

sohaga oid jurnallarga maqola va taqrizlar tayyorlash ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

eng yangi ilmiy, adabiy va lisoniy yangiliklar, yangi pedagogik texnologiyalar haqidagi ma’lumotlarni maqsadga yo‘nalgan holda izlash va topish ko‘nikmasiga ega bo‘lish;

davlat va davlatga qarashli bo‘lmagan xususiy tashkilotlarda chet tillardan tarjimonlik qilish;

texnik va boshqa tarjima turlarini amalga oshirish qobiliyatiga ega bo‘lish;

mehmonxonalarda va sayyohlik firmalarida menejerlik va ma’muriy xodim sifatida ishlash;

o‘z mutaxassisligi tillariga oid turli tadbir, anjuman va ma’rifiy suhbatlarni tashkil etish va boshqarish;

ommaviy axborot vositalarida muxbirlik va muharrirlik ishlarini amalga oshirish, mustaqil maqola, ko‘rsatuv va eshittirishlar tayyorlash;

nashriyot va tahrir sohasida badiiy va ilmiy asarlarni, sohaga oid risola va monografiyalar bo‘yicha musahhih va muharrirlik faoliyatini amalga oshirish;

noshirlik muassasalarida tarjimon va adabiy xodim bo‘lib faoliyat yuritish, arxiv va muzeylarda ekskursovod, ilmiy xodim sifatida ishlash va sohaga oid ish jarayonini tashkil qilish;

o‘zi o‘rgangan asosiy til va xorijiy tillarni o‘qitish va tarjimonlik faoliyati bilan bog‘liq sohalar bo‘yicha konsalting xizmatlarini ko‘rsatish qobiliyatiga ega bo‘lish;

turli tashkilotlarda tarjimonlik faoliyati va gid hamrohligini amalga oshirish, havo yo‘llarida servis xizmati, turli firma va mehmonxonalarda menejer xizmatini ko‘rsata olish;

o‘zbek tilshunosligi, umumiy tilshunoslik, qadimgi turkiy til, o‘zbek tili tarixi, o‘zbek folklori, o‘zbek dialektologiyasi va sheva matnlari leksikasi tahlili, hozirgi o‘zbek adabiy tili, o‘zbek adabiyoti tarixi, nazariyasi, matnshunoslik, navoiyshunoslik, jahon adabiyotiga oid bilimlarni egallash, ilmiy tadqiqot asoslari, sotsiolingvistika, o‘zbek terminologiyasi, o‘zbek leksikografiyasi, turkiy tillarning

qiyosiy-tarixiy grammatikasi, adabiyotning dolzarb masalalarini ilg‘ay olish, ilmiy faoliyatda qo‘llay bilish va o‘quvchilarga etkaza olish;

yangi o‘zbek adabiyoti tarixining taraqqiyot tamoyillari, davr adabiyotini yuzaga keltirgan omillar, qonuniyatlar, o‘ziga xos xususiyatlarni o‘rganish malakasi va bilimiga ega bo‘lish; o‘zbek adabiyoti taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlarini belgilash; qiyosiy adabiyoshunoslikning umumnazariy va uslubiy muammolari, o‘zbek mumtoz adabiyoti, qiyosiy mifologiya va folklorshunoslik, o‘zbek adabiyoti jahon badiiy tafakkuri kontekstida o‘rganilishi, o‘zbek va jahon adabiy aloqalari, tarjimashunoslik va tarjima tanqidi kabi dolzarb masalalarni yoritish; turk, ojarbayjon, qozoq, qirg‘iz, turkman adabiyoti to‘g‘risida ma’lumotga ega bo‘lish, bu xalqlar adabiyoti namoyandalari hayoti va ijodi, folklori, yozma adabiyoti namunalaridan xabardor bo‘lish; munaqqidlar, adib-munaqqidlarning faoliyati, adabiy tanqidchilikdagi janrlar va uslublar masalasini tadqiq qilish orqali tanqidiy qarashni shakllantirish;

uzluksiz ta’lim tizimi muassasalarida o‘quv jarayonini tashkil etish va o‘tkazilishiga ko‘maklashish, tadqiqotlarda ishtirok etish, ma’lumotlarni to‘plash, umumlashtirish va tahlil etish, zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalarni egallash va tatbiq etishni bilish;

umumkasbiy va ixtisoslik fanlarining o‘rganish obyektlari, predmet, maqsad va vazifalari, hodisa va jarayonlarni bilish va ulardan ilmiy tadqiqotlarda unumli foydalanish va qo‘shimcha ravishda chuqur bilim olish uquviga ega bo‘lish;

ta’lim yo‘nalishiga muvofiq kasb faoliyati sohalari erishilgan asosiy yutuqlar, muammolar va ularning istiqbol rejalarini ishlab chiqish va amalga oshirish ko‘nikmalariga ega bo‘lish;

o‘rganilayotgan til adabiyotining jahon adabiyotidagi o‘rni va uning bashariyat taraqqiyotidagi ulushini aniqlash; jahon adabiyoti an‘analaridan sharq adabiyotining milliy xususiyatlarini ajrata olish; sharq mamlakatlarida adabiy ta’sir masalalarini farqlash, ularning asosiy metod va usullarini qo‘llay bilish;

o‘rganilayotgan tilning mamlakat tarixi, geografiyasi, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy tizimi, xalqaro munosabatlari, uning jahon hamjamiyatidagi geopolitik o‘rnini bilish;

umumiy pedagogika nazariyasi, o‘qitish jarayoni, o‘qitishning ta’limiy, tarbiyaviy va rivojlantiruvchi vazifalari; ta’limda ilmiylik, izchillik, muvofiqlik, ijodiylik va boshqa tamoyillar; ta’lim jarayonida motivatsiya; ta’lim metodlari, vositalari va texnologiyalari; umumiy va xususiy metodlar; umumiy pedagogik texnologiyalar; ta’lim tizimini boshqarish; pedagogik mahorat; umumiy psixologiya; umumiy psixologiyaning sohalari; yosh va pedagogik psixologiya; ta’limni va bilimlarni o‘zlashtirishni boshqarish psixologiyasi; ta’lim va aqliy taraqqiyot; tarbiya metodlari va formalari; bo‘lg‘usi o‘qituvchi shaxsi sifatлари borasida ilmiy bilimlar, amaliy mahorat va ko‘nikmalariga ega bo‘lishi kerak.

Chet tili kommunikativ kompetensiyasi – “o‘rganilayotgan chet tilida so‘zlashuvchilar bilan o‘zga tilda muloqot qilishni amalga oshirish qobiliyati va

tayyorgarligi, shuningdek, talabalarni tili o‘rganilayotgan mamlakatlar madaniyati bilan tanishtirish, o‘z mamlakati madaniyatini yanada yaxshiroq anglash, uni muloqot jarayonida ko‘rsata olishni nazarda tutadi.

Mazkur malakaviy talablarning asosiy vazifalari talabalarda quyidagi kompetensiyalarning takomillashtirilishini nazarda tutadi:

Lingvistik kompetensiya o‘rganilayotgan til egalari bilan muloqot qilish uchun til haqidagi ma’lumotlarni (fonetika, leksika, grammatikani) etarli darajada bilish va nutq faoliyati turlarini (tinglab-tushunish, gapirish, o‘qish va yozish) egallashni nazarda tutadi.

Ijtimoiy-lingvistik (nutqiy) kompetensiya so‘zlovchining biror bir nutqiy vaziyat, kommunikativ maqsad va xohish-istagidan kelib chiqqan holda kerakli lingvistik shakl, ifoda usulini tanlash imkonini yaratadi.

Diskursiv kompetensiya (diskurs – bu og‘zaki yoki yozma matn) matnни to‘g‘ri talqin qilish va tuzish, shuningdek, shunga mos nutqiy muloqot turini tanlash uchun og‘zaki va yozma matnlarning lingvistik, stilistik hamda tarkibiy xususiyatlarini bilib olishni nazarda tutadi.

Strategik (kompensator) kompetensiya tilni etarli darajada bilmaslik, shuningdek, chet tili muhitida nutqiy hamda ijtimoiy muloqot tajribasidagi kamchilik va nuqsonlarni ayrim verbal/noverbal vositalar yordamida to‘ldirish, kommunikativ vaziyatda tushunmovchiliklar paydo bo‘lganda takroran so‘rash, uzr so‘rash va hokazolar orqali murakkab vaziyatlardan chiqib keta olish qobiliyatini nazarda tutadi.

Ijtimoiy-madaniy kompetensiya autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlarini, qadriyatlarini, marosimlarini va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish hamda tili o‘rganilayotgan mamlakat bilan taqqoslagan holda taqdim eta olish qobiliyatini ko‘zda tutadi.

Ijtimoiy kompetensiya hozirgi ko‘pmadaniyatli dunyoda ta’lim oluvchilarda chet tilini o‘rganish muhimligi tushunchasi; chet tilida muloqot qilish, anglash, o‘z ustida mustaqil ishlash va ijtimoiy moslashuv vositasi sifatida foydalanish ehtiyojini shakllantirish va rivojlantirish, fuqarolik, vatanparvarlik fazilatlarini tarbiyalashda, chet tili orqali madaniyatlar o‘rtasida muloqotlarni amalga oshirish istagi va xohishida namoyon bo‘ladi.

O‘quv-anglash kompetensiya ta’lim oluvchining chet tillar va madaniyatlarni o‘rganishning mustaqil bilim olish faoliyatidagi kompetensiyalar yig‘indisi bo‘lib, real bilish ob’ektlari va zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan mantiqiy, metodologik, o‘quv faoliyati elementlarini o‘z ichiga oladi.

3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar.

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy jarayonlar bilan uyg‘unlashtirish, tegishli amaliy ko‘nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha quyidagi amaliyotlar o‘tkaziladi:

1. Malakaviy amaliyot;
2. Pedagogik amaliyot.

4. Fanlar kalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O‘quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Fan o‘tiladigan semestr
Filologiya va tillarni o‘qitish					
1.00		*Majburiy fanlar			
1.01	O‘EYT1104	O‘zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	2
1.03	FALS1304	Falsafa	120	4	3
1.04	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	1
Filologiya va tillarni o‘qitish: roman-german tillari bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	TILSH1104	Tilshunoslik	120	4	1
1.10	ADSHK1204	Adabiyotshunoslik	120	4	2
1.11	ONA11-422	Og‘zaki nutq amaliyoti 1,2,3,4	720	24	1-4
1.12	O‘YA11-632	O‘qish va yozish amaliyoti 1,2,3,4,5,6	960	32	1-6
1.13	AGF11-210	Amaliy grammatika va fonetika 1,2	300	10	1-2
1.14	MSHK1404	Mamlakatshunoslik	120	4	4
1.15	ICHT13-820	Ikkinchi chet tili 1,2,3,4,5	600	20	3-8
1.16	TO‘MTT15-608	Tillar o‘qitish metodikasi va ta’lim texnologiyalari 1,2	240	8	5-6
1.17	TO‘MA15-608	Tili o‘rganilayotgan mamlakatlar adabiyoti 1,2	240	8	5-6
1.18	O‘TNA15-812	O‘rganilayotgan til nazariy aspektlari 1,2,3	360	12	5-8
1.19	MT1804	Matbuot tili	120	4	8
1.20	QTIP1804	Qiyosiy tipologiya	120	4	8
1.21	TNA1804	Tarjima nazariyasi va amaliyoti	120	4	8
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (asosiy va ikkinchi xorijiy til bo‘yicha)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: rus tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	TSHB1106	Tilshunoslikka kirish	180	6	1
1.10	ASHB1106	Adabiyotshunoslikka kirish	180	6	1
1.11	XTIL1104	Xorijiy til	120	4	1
1.12	HRT112-734	Hozirgi rus tili	1020	34	2,3,4,5,6,7
1.13	FOLB106	Folklor	180	6	1
1.14	JATB114	Jahon adabiyoti tarixi	360	12	2,3,4
1.15	RTTB116	Rus tili tarixi	480	16	2,3,4,5
1.16	RUMB306	Rus tili va adabiyoti o‘qitish metodikasi	180	6	5
1.17	QCTB206	Qiyosiy-chog‘ishtirma tilshunoslik	180	6	3
1.18	UTSB406	Umumiy tilshunoslik	120	4	7
1.19	RATB124	Rus adabiyoti tarixi	1020	34	2,3,4,5,6,7
1.20	ANTB406	Adabiyot nazariyasi va adabiy tanqid tarixi	180	6	7
2.00		Tanlov fanlar	1140	38	3-8
2.00		<i>Tanlov fanlar</i>	1140	38	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (rus tili va adabiyoti o‘qituvchisi)			

Filologiya va tillarni o‘qitish: o‘zbek tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	AT105	Axborot texnologiyalari	150	5	1
1.06	O‘RT205	O‘zbek(rus) tili	150	5	2
1.07	UPE505	Umumiy pedagogika	150	5	5
1.08	UPS605	Umumiy psixologiya	150	5	6
1.09	O‘F106	O‘zbek folklori	180	6	1
1.10	DTIY105	Davlat tilida ish yuritish	150	5	1
1.11	TN1,809	Tilshunoslik nazariyasi I, II	300	10	1,8
1.12	AN1,809	Adabiyotshunoslik nazariyasi I, II	300	10	1,8
1.13	Matn205	Matnshunoslik va adabiy manbashunoslik	150	5	5
1.14	JA2-310	Jahon adabiyoti I, II	300	10	2,3
1.15	O‘AT2-415	O‘zbek adabiyoti tarixi I, II, III	450	15	2,3,4
1.16	HO‘AT2-311	Hozirgi o‘zbek adabiy tili I, II	330	11	2,3
1.17	O‘D406	O‘zbek dialektologiyasi	180	6	4
1.18	NSh4-505	Navoiyshunoslik I, II	300	10	4, 5
1.19	O‘TT4-510	O‘zbek tili tarixi I,II	300	10	4,5
1.20	OTAO‘M5-610	O‘zbek tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi I,II	300	10	5,6
1.21	QA605	Qiyosiy adabiyotshunoslik	150	5	6
1.22	O‘TT605	O‘zbek tilshunosligi tarixi	150	5	6
1.23	YO‘A804	Yangi o‘zbek adabiyoti	150	5	8
1.24	ATil804	Amaliy tilshunoslik	150	5	8
2.00		Tanlov fanlar	1380	46	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (o‘zbek tili va adabiyoti)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: sharq tillari bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.06	TIL11-208	Umumiy tilshunoslik	240	8	1-2
1.07	AN1304	Adabiyot nazariyasi	120	4	3
1.08	G‘TA11-728	Garb tili va adabiyoti	840	28	1-7
1.09	MAM11-312	Mamlakatshunoslik	240	8	1,2
1.10	XShT11-874	Xorijiy sharq tili	2220	74	1-8
1.11	TO‘MA13-824	Tili o‘rganilayotgan mamlakat adabiyoti	480	16	4,5,6,8
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (sharq va g‘arb tillari bilan)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: mumtoz tillar bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.08	MMA11-312	Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari	360	12	1,2
1.09	G‘TA11-720	Garb tili va adabiyoti	720	24	1-7
1.10	XShT11-874	Xorijiy sharq tili	2220	74	1-8
1.11	O‘MA15-716	O‘zbek mumtoz adabiyoti	360	12	5-7
1.12	ETT12-616	Eski turkiy til	480	16	2-6
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (sharq va g‘arb tillari bilan)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: matnshunoslik va adabiy manbashunoslik bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3

1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.08	MMA11-312	Matnshunoslik va manbashunoslik asoslari	360	12	1,2
1.09	G‘TA11-720	Garb tili va adabiyoti	720	24	1-7
1.10	XShT11-874	Xorijiy sharq tili:	2220	74	1-8
1.11	O‘AT15-716	O‘zbek adabiyoti tarixi	360	12	5-7
1.12	TYYT12-616	Turkiy yozma yodgorliklar tili	480	16	2-6
2.00		Tanlov fanlar	1200	40	3-8
Kvalifikatsiya:		Filolog, pedagog (sharq va g‘arb tillari bilan)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: tojik tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	DTIYB105	Davlat tilida ish yuritish	150	5	1
1.10	AJB104	Adabiy jarayon	120	4	2
1.11	HTATB1,2,3-24	Hozirgi tojik adabiy tili	720	24	2, 3, 4, 5
1.12	TTTB206	Tojik tili tarixi	180	6	3
1.13	TNB 1,4-10	Tilshunoslik nazariyasi	300	10	1,7
1.14	SHTB110	Sharq (arab, fors) tillari	300	10	1,2
1.15	TDB205	Tojik dialektologiyasi	150	5	4
1.16	TFB105	Tojik folklori	150	5	1
1.17	TMATB 2,3-17	Tojik mumtoz adabiyoti tarixi	510	17	2, 3, 4, 5
1.18	JEXAB205	Jahon va eroniy xalqlar adabiyoti	150	5	3
1.19	ANB 1,4-10	Adabiyot nazariyasi	300	10	1,7
1.20	TATTB405	Tojik adabiy tanqidchilik tarixi	150	5	7
1.21	ETQGB405	Eroniy tillarning qiyosiy grammatikasi	150	5	7
1.22	TTAO‘MB306	Tojik tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi	180	6	5
1.23	SOTB306	Sotsiolingvistika	180	6	6
1.24	TTILSHTB206	Tojik tilshunosligi tarixi	180	6	4
1.25	YTATB306	Yangi tojik adabiyoti tarixi	180	6	6
2.00		Tanlov fanlar	1290	43	3-8
Kvalifikatsiya		Filolog, pedagog (tojik tili va adabiyoti o‘qituvchisi)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: qoraqalpoq tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	KLK1204	Komp'yuter lingvistikasiga kirish	120	4	2
1.10	AK1104	Adabiyotshunoslikga kirish	120	4	1
1.11	QQF1210	Qoraqalpoq folklori	300	10	1,2
1.12	TFK1104	Turkiy filologiyaga kirish	120	4	1
1.13	TK1104	Tilshunoslikga kirish	120	4	1
1.14	SHTEQY1404	Sharq tillari va eski qoraqalpoq yozuvi	120	4	4
1.15	HQQAT1420	Hozirgi qoraqalpoq adabiy tili	600	20	1,2,3,4
1.16	TTF1304	Tilshunoslik va tabiiy fanlar	120	4	3
1.17	QQAT1414	Qoraqalpoq adabiyoti tarixi	420	14	2,3,4
1.18	QQD1604	Qoraqalpoq dialektologiyasi	120	4	6
1.19	QTATZIT1404	Qoraqalpoq tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari	120	4	4
1.20	QQT1608	Qoraqalpoq tili tarixi	240	8	5,6
1.21	QQTAO" M1608	Qoraqalpoq tili va adabiyotini oqitish metodikasi	240	8	5,6
1.22	JA1304	Jahon adabiyoti	120	4	3

1.23	QOTT1804	Qoraqalpoq tilshunosligi tarixi	120	4	8
1.24	UT1804	Umumiy tilshunoslik	120	4	8
1.25	QQAATT1804	Qoraqalpoq adabiyotshunosligi va adabiy tanqidi tarixi	120	4	8
1.26	AN1504	Adabiyot nazariyasi	120	4	5
1.27	HQAAAJ1811	Hozirgi qoraqalpoq adabiyoti va adabiy jarayon	300	10	5,6
1.28	BAESHX1806	Badiiy asar estetikasi va shakliy xususiyati	180	6	8
2.00		Tanlov fanlar	1500	50	3-8
Kvalifikatsiya		Filolog, pedagog (qoraqalpoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: qozoq tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	TFK1104	Turkiy filologiyaga kirish	120	4	1
1.10	QF1201	Qozoq folklori	120	4	1
1.11	HQAT11-422	Hozirgi qozoq adabiy tili	660	22	1-4
1.12	QAT12-524	Qozoq adabiyoti tarixi	720	24	2-5
1.13	KL-1204	Kompyuter lingvistikasi	120	4	2
1.14	QTVATZAT-1406	Qozoq tili va adabiyoti ta’limida zamonaviy axborot texnologiyalari	120	4	6
1.15	AKVN11-210	Adabiyotshunoslikka kirish va nazariya	300	10	1-2
1.16	QD1404	Qozoq dialektologiyasi	120	4	4
1.17	TNVQTT13-820	Tilshunoslik nazariyasi va qozoq tili tarixi	600	20	3-8
1.18	QTVAO‘M 15-608	Qozoq tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi	240	8	5-6
1.19	MPAVL15-608	Mumtoz poetika asoslari va lingvopoetika	240	8	5-6
1.20	HQAATVJ 15-812	Hozirgi qozoq adabiyoti, adabiy tanqid va jarayon	360	12	5-8
1.21	JA1804	Jahon adabiyoti	120	4	8
2.00		Tanlov fanlar	1500	50	3-8
Kvalifikatsiya		Filolog, pedagog (qozoq tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi)			
Filologiya va tillarni o‘qitish: turkman tili bo‘yicha majburiy fanlar					
1.05	O‘RT1204	O‘zbek(rus) tili	120	4	2
1.06	TAT1204	Axborot texnologiyalari	120	4	2
1.07	UPSIX1304	Umumiy psixologiya	120	4	3
1.08	UPED1504	Umumiy pedagogika	120	4	5
1.09	TFK1104	Turkiy filologiyaga kirish	120	4	1
1.10	TURKF1204	Turkman folklori	120	4	2
1.11	TAT 11-422	Turkman adabiyoti tarixi	660	22	1-4
1.12	HTAT11-524	Hozirgi turkman adabiy tili	720	24	1-5
1.13	KOMLIN1204	Kompyuter lingvistikasi	120	4	2
1.14	TTVATZAT1304	Turkman tili va adabiyoti ta'limida zamonaviy axborot texnologiyalari	120	4	3
1.15	AKVN11-210	Adabiyotshunoslikka kirish va nazariya	300	10	1-2
1.16	TURKD1404	Turkman dialektologiyasi	120	4	4
1.17	TNVTTT13-820	Tilshunoslik nazariyasi va turkman tili tarixi	600	20	3-8
1.18	TTVAO‘M15-608	Turkman tili va adabiyotini o‘qitish metodikasi	240	8	5-6
1.19	MPAVL15-608	Mumtoz poetika asoslari va lingvopoetika	240	8	5-6

1.20	HTAATVJ15-812	Hozirgi turkman adabiyoti, adabiy tanqid va jarayon	360	12	5-8
1.21	JAHA1804	Jahon adabiyoti	120	4	8
2.00		Tanlov fanlar	1500	50	3-8
Kvalifikatsiya		Filolog, pedagog (turkman tili va adabiyoti fani o‘qituvchisi)			
		Jami	6300	210	
		Malakaviy amaliyot	900	30	7
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			8
		HAMMASI	7200	240	

**Izoh: Fanlar katalogidagi semestrlarga oliy ta’lim muassasasi o‘quv jarayonidan kelib chiqib o‘zgartirishlar kiritilishi mumkin.*

Bibliografik ma’lumotlar

UDK 002: 651. 1/7

Guruh T55

OKS 01.040.01

Tayanch so‘zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, ta’lim yo‘nalishi, kasbiy faoliyat ob’ekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o‘quv reja va fan dasturlari, tarjimonlik faoliyati, ta’limni boshqarish, o‘qib-o‘rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o‘quv jarayoni, majburiy va tanlov fanlar, ta’lim sifatini baholash va nazorat qilish, mustaqil ta’lim, konsalting xizmati, kompetensiyalar, uzluksiz ta’lim tizimi, kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar, davlat attestatsiyasi, ilmiy tadqiqot jarayoni, pedagogik faoliyat.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

**ISHLAB CHIQLIGAN:
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti**

Rektor _____ **I.Tuxtasinov**

202__ yil “_____” _____

M.O‘.

KELISHILDI:

**O‘zbekiston Respublikasi
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish
tadqiqotlari markazi**

Direktor _____ **M.Boltabayev**

202__ yil “_____” _____

M.O‘.

**Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o‘zbek tili
va adabiyoti universiteti**

Rektor _____ **Sh.Sirojiddinov**

202__ yil “_____” _____

M.O‘.

**Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi
huzuridagi Respublika ta’lim markazi**

Direktor _____ **Sh.Xudaykulov**

202__ yil “_____” _____

M.O‘.

**Mirzo Ulug‘bek nomidagi
O‘zbekiston Milliy universiteti**

Rektor _____ **I. Madjidov**

202__ yil “_____” _____

M.O‘.